



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO’NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

**CROSS-BORDER E-COMMERCE CONTRACTS: JURISDICTION AND
ONLINE DISPUTE RESOLUTION (ODR) – INTERNATIONAL
EXPERIENCE AND LEGAL RECOMMENDATIONS FOR UZBEKISTAN**

Ramazonova Xusnidakhon Sherbek qizi

Master’s Student, Tashkent State University of Law,

Specialization: International Commercial Law

E-mail: husnidanomjonova350@gmail.com

Abstract: *This thesis analyzes the jurisdictional challenges arising in cross-border e-commerce contracts and the international legal frameworks of Online Dispute Resolution (ODR) mechanisms. A comparative study of advanced practices in the European Union, the USA, and the Asia-Pacific region is conducted. Furthermore, the research develops practical recommendations for establishing institutional mechanisms to effectively resolve digital commerce disputes in the Republic of Uzbekistan.*

Keywords: *Cross-border e-commerce, jurisdiction, Online Dispute Resolution (ODR), international commercial arbitration, forum selection, consumer protection, digital economy, UNCITRAL, European Union, Uzbekistan.*

**CHEGARALARARO ELEKTRON TIJORAT SHARTNOMALARIDA
YURISDIKSIYA VA NIZOLARNI ONLAYN HAL ETISH: XALQARO
TAJRIBA VA O’ZBEKISTON UCHUN HUQUQIY TAVSIYALAR**

Ramazonova Xusnidaxon Sherbek qizi

Magistrant, Toshkent davlat yuridik universiteti,

Xalqaro tijorat huquqi yo’nalishi

E-mail: husnidanomjonova350@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu tezisda chegaralararo elektron tijorat shartnomalarida yuzaga keladigan yurisdiksiya muammolari va nizolarni onlayn hal etish (ODR)*



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO’NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

mexanizmlarining xalqaro-huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Yevropa Ittifoqi, AQSh va Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi ilg’or tajribalar qiyosiy o’rganiladi hamda O’zbekiston Respublikasida raqamli tijorat nizolarini samarali hal etishning institutsional mexanizmlarini shakllantirishga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

***Kalit so’zlar:** chegaralararo elektron tijorat, yurisdiksiya, onlayn nizolarni hal etish (ODR), xalqaro tijorat arbitraji, forum selection, iste’molchilar huquqini himoya qilish, raqamli iqtisodiyot, UNCITRAL, Yevropa Ittifoqi, O’zbekiston.*

**ЮРИСДИКЦИЯ И ОНЛАЙН-РАЗРЕШЕНИЕ СПОРОВ В ТРАНСГРАНИЧНЫХ
ДОГОВОРАХ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И
ПРАВОВЫЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА**

Рамазонова Хуснидахон Шербек кизи

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета,

Направление: Международное коммерческое право

E-mail: husnidanomjonova350@gmail.com

Аннотация: В данной тезисной работе анализируются проблемы юрисдикции, возникающие в трансграничных договорах электронной коммерции, а также международно-правовые основы механизмов онлайн-разрешения споров (ODR). Проводится сравнительный анализ передового опыта Европейского Союза, США и Азиатско-Тихоокеанского региона, а также разрабатываются практические рекомендации по формированию институциональных механизмов эффективного разрешения цифровых коммерческих споров в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: Трансграничная электронная коммерция, юрисдикция, онлайн-разрешение споров (ODR), международный коммерческий арбитраж, выбор форума (forum selection), защита прав потребителей, цифровая экономика,



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO’NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

ЮНСИТРАЛ, Европейский Союз, Узбекистан.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi elektron tijorat munosabatlarini milliy chegaralardan tashqariga chiqarib, yangi huquqiy muammolar majmuini keltirib chiqarmoqda. UNCTAD va yetakchi tahliliy markazlarning ma’lumotlariga ko’ra, 2026-yilga kelib global B2C elektron tijorat bozori qariyb 9 trillion AQSh dollarini tashkil etib, jahon savdosidagi ulushi barqaror o’sishda davom etmoqda¹. Bunday sharoitda, turli davlatlar yurisdiksiyasiga mansub tomonlar o’rtasidagi nizolarni hal etishda qaysi davlat sudining yoki arbitraj tribunalining vakolati qo’llanilishi lozim - degan savol xalqaro xususiy huquqning eng munozarali muammolaridan biriga aylandi. Veb-saytga kirish yoki elektron shartnoma tuzish orqali amalga oshiriladigan tranzaksiyalarda an’anaviy yurisdiksiya mezonini bo’lgan “jismoniy mavjudlik” (physical presence) tamoyili samarasiz bo’lib qolmoqda. Natijada tomonlarning kelishuvi asosidagi (consensual) va majburiy (mandatory) yurisdiksiya me’yorlari o’rtasidagi ziddiyatlar xalqaro elektron tijoratni tartibga solishning muhim institutsional muammosiga aylanmoqda².

O’zbekiston Respublikasining “Raqamli O’zbekiston - 2030” strategiyasi doirasida elektron tijorat sohasini jadal rivojlantirish va Jahon Savdo Tashkilotiga a’zo bo’lish yo’lida olib borilayotgan muzokaralar milliy huquqiy tizimni xalqaro standartlarga moslashtirish zaruratini tobora dolzarb qilmoqda³. Xususan, transchegaraviy bitimlardan kelib chiquvchi huquqiy nizolarni samarali hal etishning institutsional

¹ B2C E-Commerce Market Size, Share & Trends Research Report, 2031. — Mordor Intelligence, 2026; UNCTAD. Digital Economy Report 2024-2025 updates.

² Hartley T.C. Choice-of-court Agreements under the European and International Instruments. — Oxford University Press, 2013. — P. 88–94.

³ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Raqamli O’zbekiston — 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida. 05.10.2020 yildagi PF-6079-son // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.10.2020 y., 06/20/6079/1349-son. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO’NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

mexanizmlarini shakllantirish nafaqat iste’molchilar manfaatlarini himoya qilish, balki xorijiy investorlar uchun huquqiy xavfsizlik kafolatini ta’minlash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi rivojlangan davlatlar tajribasini qiyosiy tahlil qilish asosida O’zbekistonda chegaralararo elektron tijorat shartnomalarida yurisdiksiya va nizolarni hal etishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish bo’yicha ilmiy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Chegaralararo elektron tijorat nizolarini hal etishning xalqaro-huquqiy asoslarini o’rganishda birinchi navbatda UNCITRALning Onlayn nizolarni hal etish bo’yicha texnik eslatmalarini ko’rib chiqish zarur⁴. Ushbu hujjat ODR jarayonini besh bosqichga: muloqot (negotiation), vositachilik (mediation), ommaviy baho (expert determination) va avtomatlashtirilgan hal etish (automated settlement) bosqichlariga ajratib, elektron tijorat nizolarini samarali boshqarishning konseptual asosini shakllantirdi. Biroq texnik eslatmalar huquqiy jihatdan majburiy kuchga ega emas va davlatlarning milliy qonunchiligiga tatbiq etish darajasi turlichadir. Yevropa Ittifoqi bu borada yetakchi maqomni egallagan. 2013-yilgi 524/2013 Reglament asosida barpo etilgan YeI ODR platformasi⁵ iste’molchilarning B2C munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolarni milliy alternativ nizolarni hal etish organlari orqali hal etishning yagona raqamli infrastrukturasi taqdim etadi. Ushbu mexanizm 2016-yildan buyon faol ishlayapti va muzokaralar jarayonida ishtirokchilarning 70 foizidan ortig’i nizoni muvaffaqiyatli yakunlashi bilan raqamli nizolarni hal etishning keng ko’lamli milliy-mintaqaviy modeli sifatida e’tirof etilmoqda. Yurisdiksiya masalasini tartibga solishda “forum tanlash shartnomasi” (forum selection clause) instituti elektron tijoratda tomonlar

⁴UNCITRAL *Technical Notes on Online Dispute Resolution*. — New York: United Nations, 2017. — P. 5–12. https://uncitral.un.org/en/texts/onlinedisputeresolution/explanatorytexts/technical_notes

⁵Regulation (EU) No 524/2013 of the European Parliament and of the Council on online dispute resolution for consumer disputes // *Official Journal of the European Union*. L 165/1. — 2013. <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2013/524/oj>



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

avtonomiyasining muhim jihati sifatida namoyon bo‘ladi. Gaaga Konferensiyasining 2005-yilgi “Sud tanlash kelishuvi to‘g‘risida”gi Konvensiyasi⁶ ushbu shartnomalarning xalqaro darajada tan olinishini kafolatlashga qaratilgan bo‘lib, hozirgi kunda 30 dan ortiq davlat va YeI tomonidan ratifikatsiya qilingan. Konvensiyaga ko‘ra, tomonlar tomonidan belgilangan eksklyuziv forum bo‘yicha yurisdiksiya boshqa davlatlar sudlari uchun ham majburiy hisoblanadi - bu esa transchegaraviy elektron shartnomalar uchun muhim huquqiy kafolatni ta‘minlaydi. YeI ichida esa Bryussel Ia Reglamenti⁷ elektron tijorat nizolarida yurisdiksiyani belgilashning keng normativ bazasini shakllantirgan bo‘lib, unda iste‘molchilarni himoya qilish maqsadida bir qator majburiy qoidalar o‘rnatilgan. Xususan, iste‘molchi o‘z yashash joyidagi sudi orqali da‘vo qo‘zg‘atish huquqiga ega bo‘lib, bu tadbirkor sifatida faoliyat yurituvchi kuchli tomonning nomaqbul imtiyozlariga chek qo‘yadi.

Xalqaro tijorat arbitraji (international commercial arbitration) chegaralararo elektron tijorat nizolarini hal etishning eng keng qo‘llaniladigan mexanizmi sifatida namoyon bo‘lmoqda. UNCITRALning Xalqaro tijorat arbitraji bo‘yicha Model qonuni⁸ va 1958-yilgi Nyu-York Konvensiyasi⁹ xalqaro arbitraj yechimlarini 172 davlatda ijro etish imkoniyatini yaratib, ushbu mexanizmni transchegaraviy nizolarni hal etishning iqtisodiy jihatdan eng samarali yo‘li sifatida belgilaydi. Raqamli muhitda arbitraj qo‘llashda yuzaga keladigan asosiy muammo - elektron shaklda tuzilgan arbitraj

⁶*Convention on Choice of Court Agreements. — The Hague: HCCH, 2005.*
<https://www.hcch.net/en/instruments/conventions/full-text/?cid=98>

⁷*Regulation (EU) No 1215/2012 of the European Parliament and of the Council on jurisdiction and the recognition and enforcement of judgments in civil and commercial matters (Brussels Ia) // Official Journal of the European Union. L 351/1. — 2012.* <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2012/1215/oj>

⁸*UNCITRAL Model Law on International Commercial Arbitration (1985) with amendments as adopted in 2006. — New York: United Nations, 2008. — P. 8–20.* https://uncitral.un.org/en/texts/arbitration/modellaw/commercial_arbitration

⁹*New York Convention on the Recognition and Enforcement of Foreign Arbitral Awards, 1958.*
<https://www.newyorkconvention.org/>



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO’NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

shartnomasining huquqiy maqomini turli milliy qonunchiliklar doirasida bir xil talqin qilmaslikdir¹⁰. Xususan, “yozma shakl” talabini ba’zi davlatlar faqat qog’oz hujjat sifatida qabul qilishi xalqaro arbitraj yechimlarini tan olishda to’siq bo’lmoqda. O’zbekiston Respublikasida 2021-yilgi “Xalqaro tijorat arbitraji to’g’risida”gi Qonun¹¹ UNCITRAL Model qonuniga asoslangan bo’lib, elektron formatdagi arbitraj shartnomasini ham yuridik kuch beradi. Biroq qonunning amaliyotda to’liq tatbiq etilishida texnik va institutsional omillar bo’yicha rivojlanish zarur.

Mintaqaviy darajada raqamli tijorat nizolarini hal etishda yangi tendensiyalar yaqqol namoyon bo’lmoqda. Xususan, Raqamli iqtisodiyot sheriklik kelishuvi 9-bo’limida¹² elektron tijorat nizolarini hal etish uchun ODR mexanizmlari va iste’molchi huquqlarini mustahkamlash bo’yicha alohida majburiyatlar belgilangan. Mazkur yondashuv tomonlar o’rtasida avtomatlashtirilgan muzokara va sun’iy intellektga asoslangan nizolarni hal etish algoritmlarini qo’llash imkoniyatini ham o’z ichiga oladi. Mintaqaviy iqtisodiy sheriklik kelishuvining 12.15-moddasida¹³ ham elektron tijorat nizolari uchun samarali elektron mexanizmlar va iste’molchilar huquqini himoya qilish bo’yicha davlatlararo hamkorlik majburiyligi mustahkamlangan. Ushbu mintaqaviy tajribalar O’zbekiston uchun, jumladan ShHT va MDH doirasidagi raqamli savdo munosabatlarini tartibga solishda konseptual asos bo’lib xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, YeIning GDPR nizomidagi 77–79-moddalari¹⁴ shaxsiy ma’lumotlarni

¹⁰Murray A.D. *The Regulation of Cyberspace*. — 3rd ed. — London: Routledge, 2019. — P. 180–188.

¹¹O’zbekiston Respublikasining Qonuni. *Xalqaro tijorat arbitraji to’g’risida*. 16.10.2021 yildagi O’RQ-714-son // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/uz/docs/5598920>

¹²Digital Economy Partnership Agreement (DEPA). Section 9: Dispute Resolution. — 2020. <https://isomer-user-content.by.gov.sg/166/9f2ab40f-0ad1-4925-b8d5-03bdb2dda5eb/Digital%20Economy%20Partnership%20Agreement.pdf>

¹³Regional Comprehensive Economic Partnership (RCEP). Chapter 12: Electronic Commerce, Article 12.15. — 2022. <https://asean.org/wp-content/uploads/2024/10/Regional-Comprehensive-Economic-Partnership-RCEP-Agreement-Full-Text.pdf>

¹⁴Regulation (EU) 2016/679 (GDPR). Article 77–79 — Rights and remedies // Official Journal of the European Union. — 2016. <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2016/679/oj>



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO’NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

huquqbuzarliklaridan kelib chiquvchi transraqamli nizolarda maxsus da’vo mexanizmlarini belgilab, ma’lumotlarni himoya qilish va elektron tijorat nizolarini hal etish o’rtasidagi muhim bog’liqlikni namoyon etadi.

O’zbekiston Respublikasida chegaralararo elektron tijorat nizolarini hal etishning normativ-huquqiy bazasi hamon shakllanish bosqichida ekanligini ta’kidlash zarur. Amaldagi “Elektron tijorat to’g’risida”gi Qonun¹⁵ va Fuqarolik protsessual kodeksining umumiy nizom qoidalari transchegaraviy onlayn nizolarni hal etish uchun maxsus ODR mexanizmlarini nazarda tutmaydi. Mazkur huquqiy bo’shliq xorijiy kontragentlar bilan bitimlar tuzishda O’zbekiston tadbirkorlari va iste’molchilari uchun huquqiy xavfsizlikni pasaytirmoqda¹⁶. JST a’ziligiga qo’shilish muzokaralari doirasida esa onlayn iste’molchilar huquqlarini kafolatli himoya qilish va nizolarni hal etishning samarali mexanizmlarini ta’minlash alohida shart sifatida ilgari surilmoqda¹⁷. Bu esa milliy qonunchilikni UNCITRAL standartlari asosida zudlik bilan takomillashtirish zarurligini ko’rsatmoqda.

Amalga oshirilgan qiyosiy-huquqiy tahlil asosida transchegaraviy elektron tijorat shartnomalarida yurisdiksiya va nizolarni onlayn hal etishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan quyidagi konseptual *xulosalar va amaliy tavsiyalarni* shakllantirish mumkin.

Birinchidan, Fuqarolik protsessual kodeksiga va “Elektron tijorat to’g’risida”gi Qonunga raqamli muhitda tuzilgan forum tanlash shartnomasini tan olish bo’yicha maxsus normalarni kiritish zarur. Bunday qoida elektron shartnomaga kiritilgan matn

¹⁵O’zbekiston Respublikasining Qonuni. Elektron tijorat to’g’risida (yangi tahriri). 29.09.2022 yildagi O’RQ-792-son // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/uz/docs/-6213382>

¹⁶Usmonov M.A. Elektron shartnomalarning huquqiy tabiati // *Huquq — Pravo — Law*. – 2021. – № 3. – B. 44–53.

¹⁷WTO. Accession of Uzbekistan. Working Party Report. WT/ACC/UZB/11. — Geneva: WTO, 2025. https://www.wto.org/english/thewto_e/acc_e/a1_ouzbeistan_e.htm



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO’NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

shaklida, elektron tasdiqlash orqali yoki standart shartlardagi o’zaro rozi bo’lish usulida tuzilgan forum tanlash kelishuviga huquqiy kuch berishi lozim. Bu, o’z navbatida, Gaaga Konvensiyasining¹⁸ talablariga moslikni ta’minlab, O’zbekiston nizomlariga xalqaro investorlarning ishonchini oshiradi.

Ikkinchidan, UNCITRAL texnik eslatmalari va YeI ODR Reglamenti standartlari asosida O’zbekistonda davlat miqyosidagi onlayn nizolarni hal etish platformasini joriy etish lozim. Mazkur platforma birinchi bosqichda B2C munosabatlardan kelib chiquvchi mayda tijorat nizolarini qamrab olib, keyinchalik B2B segmentiga kengaytirilishi maqsadga muvofiqdir. ODR platformasini O’zbekiston Respublikasining Iste’molchilar huquqini himoya qilish agentligi bilan birgalikda boshqarish institutsional javobgarlikni aniqlashtiradi¹⁹.

Uchinchidan, O’zbekistonning Nyu-York Konvensiyasi doirasidagi xalqaro tijorat arbitraji tizimini raqamli muhitga moslashtirish uchun “Xalqaro tijorat arbitraji to’g’risida”gi Qonunga elektron shaklda tuzilgan arbitraj shartnomasini yuridik tenglik asosida qog’oz shaklga tenglashtiruvchi maxsus norma kiritilishi zarur²⁰. Shuningdek, UNCITRAL Model qonunidagi “yozma shakl” talabini zamonga moslashtirgan 2006-yilgi tuzatishlar asosida milliy normani yangilash maqsadga muvofiqdir.

To’rtinchidan, Gaaga Konvensiyasini ratifikatsiya qilish va BMTning 2005-yilgi Xalqaro shartnomalarda elektron aloqalardan foydalanish to’g’risidagi Konvensiyasini amalga oshirish yuzasidan olingan xalqaro majburiyatlarni to’liq bajarish zarur. Ushbu ikki xalqaro hujjatni birga ratifikatsiya qilish forum tanlash va elektron shartnoma

¹⁹Hamidov A.I. O’zbekistonda elektron tijorat qonunchiligini takomillashtirish yo’llari // O’zMU xabarlari. – 2022. – № 1. – B. 112–121.

²⁰Schlechtriem P., Schwenger I. Commentary on the UN Convention on the International Sale of Goods (CISG). — 4th ed. — Oxford University Press, 2016. — P. 44–52.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO’NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

maqomi bo’yicha O’zbekistonning xalqaro pozitsiyasini mustahkamlaydi va jurisdiktsion noaniqlik muammolarini kompleks hal etishga asos yaratadi²¹.

Beshinchidan, ShHT va MDH doirasida raqamli savdo nizolarini hal etishning uyg’unlashtirilgan mexanizmini yaratish tashabbusini ilgari surish lozim. Xususan, DEPA va RCEP tajribasidan kelib chiqib, mintaqaviy ODR protokolini va elektron arbitraj qarorlarini o’zaro ijro etish bo’yicha ko’p tomonlama kelishuv loyahasini tayyorlash O’zbekiston uchun Markaziy Osiyodagi raqamli huquq islohoti yetakchisi sifatidagi geosiyosiy rolini mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

- O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik prosessual kodeksi. – T.: Adolat, 2023.
- O’zbekiston Respublikasining Qonuni. Elektron tijorat to’g’risida (yangi tahriri). 29.09.2022 yildagi O’RQ-792-son // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.09.2022 y.
- O’zbekiston Respublikasining Qonuni. Xalqaro tijorat arbitraji to’g’risida. 16.10.2021 yildagi O’RQ-714-son // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.10.2021 y.
- O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Raqamli O’zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida. 05.10.2020 yildagi PF-6079-son.

II. Xalqaro shartnomalar va model qonunlar

- Convention on Choice of Court Agreements. - The Hague: HCCH, 2005.
- Digital Economy Partnership Agreement (DEPA). - 2020.
- New York Convention on the Recognition and Enforcement of Foreign Arbitral Awards, 1958.
- Regional Comprehensive Economic Partnership (RCEP). Chapter 12: Electronic Commerce. - 2022.

²¹Mutalov O. O’zbekistonda elektron shartnomalarning huquqiy tartibi: muammolar va istiqbollor. — 2024.
<https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I110Y2024N30.1>



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO’NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

- Regulation (EU) No 524/2013 on online dispute resolution for consumer disputes (ODR Regulation). - 2013.
- Regulation (EU) No 1215/2012 on jurisdiction and the recognition and enforcement of judgments in civil and commercial matters (Brussels Ia). - 2012.
- UNCITRAL Model Law on International Commercial Arbitration (1985, amended 2006). - New York: United Nations, 2008.
- UNCITRAL Technical Notes on Online Dispute Resolution. - New York: United Nations, 2017.
- United Nations Convention on the Use of Electronic Communications in International Contracts. - New York: UN, 2005.
- WTO. Accession of Uzbekistan. Working Party Report. WT/ACC/UZB/11. - Geneva: WTO, 2025.

III. Ilmiy adabiyotlar va maqolalar

- Hamidov A.I. O’zbekistonda elektron tijorat qonunchiligini takomillashtirish yo’llari // O’zMU xabarlari. – 2022. – № 1. – B. 112–121.
- Hartley T.C. Choice-of-court Agreements under the European and International Instruments. - Oxford University Press, 2013. - 420 p.
- Mutalov O. O’zbekistonda elektron shartnomalarning huquqiy tartibi: muammolar va istiqbollari. - 2024. <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I10Y2024N30.1>
- Murray A.D. The Regulation of Cyberspace. – 3rd ed. – London: Routledge, 2019. – 427 p.
- Schlechtriem P., Schwenzer I. Commentary on the UN Convention on the International Sale of Goods (CISG). – 4th ed. – Oxford University Press, 2016.
- UNCTAD. Digital Economy Report 2023. – Geneva: United Nations, 2023. – 188 p.
- Usmonov M.A. Elektron shartnomalarning huquqiy tabiati // Huquq - Pravo - Law. – 2021. – № 3. – B. 44–53.